

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DS.03/30.10.2025.Yu.186.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA
QILISH AKADEMIYASI**

TAIROVA GULMIRA MURODJONOVNA

**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING
MILLIY MODELINI SHAKLLNTIRISH ASOSLARI**

12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Tairova Gulmira Murodjonovna

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy modelini shakllantirish
asoslari.....3

Tairova Gulmira Murodjonovna

Foundations for the formation of a national model for combating crime.....23

Таирова Гулмира Муроджоновна

Основы формирования национальной модели противодействия
преступности.....43

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

List of published scientific works
Список опубликованных научных работ.....50

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DS.03/30.10.2025.Yu.186.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA
QILISH AKADEMIYASI**

TAIROVA GULMIRA MURODJONOVNA

**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING
MILLIY MODELINI SHAKLLNTIRISH ASOSLARI**

12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация мавзуси О‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2024.3.PhD/Yu1567 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) www.proacademy.uz sayti va “ZiyoNET” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pulatov Baxtiyor Xalilovich

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Adilkariev Xojimurod To‘xtamurodovich

yuridik fanlar doktori, professor

Xo‘jaqulov Siyovush Baxtiyorovich

yuridik fanlar doktori, professor

Etakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.10.2025.Yu.186.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil “23”-yanvar soat 11.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: "Mirzo Ulug'bek" tum., "Buyuk ipak yo'li" ko'chasi, 243-uy. Tel.: (99871) 231-39-77, e-mail: info@uzkti.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 143-uy. Tel.: (99871) 231-39-77)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “9”-yanvar kuni tarqatildi.
(2026 yil “9”-yanvardagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

A.I.Toshpulatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

S.A.Nurumbetova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

K.R.Abdurasulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilikka har qanday davrda insoniyatning farovon turmushi uchun tahdid soluvchi salbiy hodisa sifatida qaralib, unga qarshi kurashish barcha davlatlarning ustuvor va dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan mamlakat va shaharlarning dunyo reytingi yuritilib, unda hatto sayyohlar ham bormasligi tavsiya etiladigan, har kuni odamlar o'g'irlanadigan, o'ldiriladigan, zo'rlanadigan, jinsiy qullikka sotiladigan, aholisining aksariyat qismi qashshoqlik chegarasida yashab, bolalari qo'lga o'yinchoqlar o'rniga qurol, granata, bomba ushlaydigan ... eng xavfli hisoblanuvchi o'nlab davlatlardagi jinoyatchilik holatini aks ettirilib borilishi mavjud dolzarblikni yanada oshiradi¹. Bugungi kunda jinoyatchilikning ommaviy salbiy hodisaga aylanib ulgurgani, aksariyat davlatlarda u oshib borish tendensiyasiga ega ekanligi, qolaversa, globallashtirish, raqamlashuv va ijtimoiy tarmoqlashuv sharoitida uning kiberterrorizm, kiberbulling, kiberribgarlik kabi murakkab ko'rinishlarining faollashuvi jinoyatchilikka qarshi kurashishda optimal yondashish, zamonaviy innovatsion usul va vositalarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ayni vaqtda, jahonda jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek uning oldini olishda o'ziga xos modellardan foydalanish, masalaga aniq maqsadli, tizimli va kompleks yondashish, bunda mahalliy omillarni hisobga olish, jarayonga yangicha ishlash usullarini joriy qilish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'rinda jinoyatchilikka qarshi kurashish – jamiyatdagi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik jarayonlar ta'sirida o'zgaruvchan kechadigan murakkab ijtimoiy faoliyat ekanligini inobatga olib, uni tizimli yondashuvga tayangan hamda kognitiv (ilmiy) modellashtirish usullarini qo'llagan holda tadqiq etish mazkur faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir qilishi alohida e'tirof etiladi. Zero bejizga, bir qator mamlakatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashishning ijtimoiy, iqtisodiy, shuningdek kriminologik tizimlarning anglo-amerika, g'arbiy yevropa (kontinental), osiyo-tinch okeani, sotsialistik, rossiya, musulmon va aralash kabi moddellari qo'llanib kelinmagan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan jadal islohotlarga qaramay, birgina 2024 yilda sodir etilgan jinoyatlar 2023 yilda ro'yxatga olingan jinoyatlarga nisbatan 104 096 tadan 132 298 taga yoki 27%ga, har 100 000 aholi boshiga 283 dan 352 ga yoki 24%ga² ortishi kuzatildi. Xususan, 2024 yilda sodir etilgan jinoyatlarning 45 545 ta yoki 34%ini "oldini olish mumkin bo'lgan", 27 953 ta yoki 21%ini esa "aniqlanadigan" jinoyatlar tashkil etgan bo'lsa, 58 800 ta yoki 45%ini axborot-texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar tashkil etdi. 2024 yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston xalqaro reytinglarda 30.5 jinoyatchilik indeksini^{3*} qo'lga kiritmada, World Justice Project tashkiloti tomonidan shakllantirilgan qonun ustuvorligi indeksida 0.49, ya'ni ijobiy bo'lmagan (xususan, odil

¹Уровень преступности в мире в 2024-2025 году // URL: <https://visasam.ru/emigration/vybor/prestupnost-v-mire.html> (murojat vaqti: 23.08.2025).

²URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/03/crime-stats/> murojat vaqti: 13.03.2025).

sudlov tizimi hukumatning noqonuniy ta'siridan xoli ekanligi subfaktori bo'yicha 0.19, xolisligi subfaktori bo'yicha 0.34, ayblanuvchining huquqlari va protsessual normalarga rioya etish subfaktori bo'yicha 0.40 kabi anchayin past) ko'rsatkich qayd etildi⁴. Shuning uchun ham Prezident Sh.Mirziyoev 2024 yilda ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga yo'llagan bayram tabrigida "jinoyatlarga qarshi kurashishda ta'sirchan mexanizmlarni qo'llash, ilmiy yondashuvlar asosida jinoyatchilikni jilovlash yuzasidan manzilli ish olib borish, tergov sifatini oshirish orqali aholi o'rtasida bu sohada adolatga bo'lgan qat'iy ishonchni shakllantirish lozimligini"⁵ alohida ta'kidladi. "Ilmiy yondashuv" – jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim omili ekanligi ilmiy hamjamiyat vakillari tomonidan ham e'tirof etildi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021), "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari (2023), "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–1-son Qarori (2025) hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning "I.Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashishning ayrim jihatlari, xususan ma'lum toifadagi jinoyatchilikka qarshi kurashish yoki uni oldini olish masalalari N.Abidova, Z.Zaripov, M.Usmonaliev, Y.Karaketov, M.Radjapova, M.Rustambaev, Q.Abdurasulova, I.Ismailov, A.Zakirova, B.Bekmatova, M.O'razaliev, M.Fazilov, N.Salaev, R.Altiev, Sh.G'ofurov, G'.Qarshiev, S.Niyozova, G.Nurmammedova, B.Umirzakov, M.Eshnazarov, Ye.Kolenko, S.Xujakulov, U.Ashurov kabi huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy davlatlarda I.Karpets, Yu.Antonyan, N.Kuznetsova, S.Borodin, V.Luneev, S.Inshakov, A.Chislov, O.Vedernikova, S.Starostina, A.Gorshenkov, V.Larichev, A.Dolgova, Ya.Gilinskiy, D.Malkov, A.Varigin, N.Morozov, Ye.Yanush, V.Kudryavsev, V.Tulyakov, A.Trefilov, V.Tolebekov, R.Uolker, J.McCormick-

⁴URL: <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/country/2023/Uzbekistan/Criminal%20Justice/> (murojat vaqti 23.05.2025).

*Izoh: Numbeo tahlillariga ko'ra, indeks ko'rsatkichlarining 0-20 – o'ta past, 20-40 – past, 40-60 – o'rta, 60- 80 – yuqori va 80-100 – o'ta yuqori darajadagi jinoyatchilikni anglatadi

⁵ URL: <https://president.uz/uz/lists/view/7646> (murojat vaqti: 23.04.2025).

Watson, K.Kuns kabi olimlar jinoyatchilikka qarshi kurashishning muayyan nazariy jihatlarini tadqiq etishgan.

Mazkur dissertatsiya boshqa tadqiqot ishlaridan “jinoyatchilikka qarshi kurashish”ni muayyan davlat (O‘zbekiston)da uning samarali kechishiga ta’sir qiluvchi jarayonlar, sohalar va tizimlar (xususan, qonunchilik)dan kelib chiqib shakllantirilishi lozim bo‘lgan alohida kriminologik tizim hamda funksional tizim sifatida o‘rganilgani bilan farqlanadi. Shu jihatdan ham mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari negizida jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy modelini shakllantirish asoslari “12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)” ixtisosligi doirasida yaxlit tadqiqot ishi sifatida ilk marotaba tadqiq etilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining u bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasining 2023-2025 yillar uchun mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarni profilaktika qilish va uning oldini olish tizimini takomillashtirish muammolari”ni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashishning ijtimoiy adolat mezonlariga asoslangan va tizimlashgan milliy modelini shakllantirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar, shu jumladan milliy modelning asosiy (tashkiliy) komponentlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Jinoyatchilikka qarshi kurashish” kategoriyasining ilmiy talqiniga aniqlik kiritish va mazmunini ochib berish;

jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir kriminologik yondashuvlarni tahlil qilish; ayrim davlatlarning tajribasi asosida jinoyatchilikka qarshi kurashish modellarini tadqiq etish;

O‘zbekistondagi jinoyatchilik holatini o‘rganish va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish;

jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy (jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, profilaktika to‘g‘risidagi) qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

O‘zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotini tizimli tahlil qilish;

O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining rivojlanishini tadqiq etish;

milliy tizimni takomillashtirish uchun taklif etilayotgan modelning mazmunini yoritish;

Milliy modelning asosiy yo‘nalishlari va tuzilmaviy komponentlarini aniqlashtirish hamda konsepsiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy modelini shakllantirish bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir nazariy yondashuvlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo‘llash amaliyoti,

jinoyatchilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlari hamda ayrim davlatlarning kriminologik modellari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, retrospektiv tahlil, statistik tahlil, tanqidiy tahlil, modellashtirish, ekspertlik so'rovnomasi kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda aks etadi:

dissertatsiya tadqiqoti natijasida ishlab chiqilgan "Jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir milliy kriminologik tizim modelining asosiy (tashkiliy) komponentlari konsepsiyasi"dagi taklif va tavsiyalarning Jinoyat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir milliy modelni shakllantirish hamda bu borada olib boriladigan tadqiqot ishlarining yo'nalishi va maqsadlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslantirilgan;

jinoyatlarni situatsion oldini olish (jinoiy vaziyatga yo'l qo'yimaslik) – jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining alohida bosqichi ekanligi va uni ichki ishlar organlarining muhim faoliyat yo'nalishi sifatida belgilash lozimligi haqidagi taklif asoslantirilgan;

"jinoiy jazodan ko'zlangan asosiy maqsad ijtimoiy adolatni ta'minlash" ekanligini jinoyat qonunchilikda aniq belgilash, shu asosda jinoiy jazolar tizimini qayta ko'rib chiqib, undan "axloq tuzatish ishlari" kabi mohiyatan eskirgan jazo turlarini chiqarib tashlash, ularning o'rniga "ish haqidan ushlab qolish" kabi yangi jazo turlarini kiritish zarurligi asoslantirilgan;

jinoyat-protsessual qonunchiligida prinsiplar fundamental ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar ekanligini alohida e'tirof etib, jinoyat ishlarini hay'atda yoki yakka tartibda ko'rib chiqish kabi tashkiliy xarakterga ega bo'lgan masalalarni prinsiplar qatoridan chiqarish, jinoyat protsessini yuritishga mas'ul bo'lgan sub'ektlarning aniq huquqiy maqomini belgilash, jinoyat protsessida jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarning qoplanishini ta'minlash, jinoyat ishlarini yuritayotgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning harakatlari va qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlarini belgilash lozimligi asoslantirilgan;

jinoyat ishlarini yuritishda nafaqat sudning balki boshqa mas'ul sub'ektlar, jumladan prokurorning mustaqilligini ta'minlash muhimligi, bu borada prokuratura organlarida kollegial boshqaruv organlari, shuningdek malaka va odob-axloq kengashlarini faoliyatini yo'lga qo'yish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Jinoyatlarni situatsion oldini olish"ni ichki ishlar organlarining jinoyatchilikni oldin olish faoliyatidagi muhim yo'nalish sifatida belgilash zarurligi asoslantirilgan;

jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir milliy modelning asosiy komponentlari tizimida birinchi komponent sifatida axloqiy tarbiya bo'lishi lozimligi isbotlangan;

"Jinoyatchilikka qarshi kurashishning nazariy asoslari" nomli ilmiy risola nashr qilingan;

Jinoyatga nisbatan "konsensus" va jazoga nisbatan "retrebutiv" kabi aniq yondashuvlarga tayanish, shuningdek jinoyatchilikni oldini olishga doir strategiya va

dasturlarni ishlab chiqishda jinoyatchilik sabablari va jinoyatchilikni oldini olishga doir yondashuvlarni inobatga olish zarurligi isbotlangan;

“Jinoyatchilik tahliliga oid ma’lumotlar to‘plami” tayyorlangan;

“Jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir milliy kriminologik tizim modelining asosiy (tashkiliy) komponentlari konsepsiyasi” ishlab chiqilgan;

“Jinoyatlarni oldini olish kodeksini” ishlab chiqish zarurati mavjudligi asoslantirilgan;

Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunlarning yangi tahrirdagi loyihalari uchun takliflar ishlab chiqilgan;

jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat qonunchiligi “javobgarlikning muqarrarligi” prinsipiga tayanishini unutmazlik, “javobgarlikdan ozod qilish” institutining esa zarurligi va ahamiyatini qaytadan tanqidiy ko‘rib chiqish zarurligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalariga, amaliy faoliyat natijalarini o‘zida aks ettirgan empirik va statistik ma’lumotlarga hamda nazariy g‘oya va qarashlarni o‘zida ifodalagan ilmiy manbalarga asoslangan. Xulosa va takliflarni shakllantirishda 312 nafar jinoyatchilikka qarshi kurashishga mas’ul xodimlar (profilaktika inspektorlari, tergovchilar, prokuror xodimlar, advokatlar, JIEM xodimlari va jinoyat ishlari bo‘yicha sudyalari) o‘rtasida o‘tkazilgan ekspertlik so‘rovnomasi natijalari inobatga olingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ushbu natijalar mamlakatimizda kriminologiya fanining mazmunan boyishiga hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish milliy tizimining ilmiy-nazariy (doktrinal) asoslarini ishlab chiqishga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan “Jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir milliy kriminologik tizim modelining asosiy (tashkiliy) komponentlari konsepsiyasi” jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy modelini shakllantirishga, shuningdek boshqa taklif va tavsiyalar esa jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotini ilmiy ta’minlash va sohaga doir qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarini joriy etilishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

“Jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir milliy kriminologik tizim modelining asosiy (tashkiliy) komponentlari konsepsiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti (2024 yil 20 noyabrda 40/653-son xat) hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti (2025 yil 8 iyulda 3/dn-142-son xat) tomonidan e’tirof etilgan va ilmiy g‘oya sifatida qo‘llab-quvvatlangan, kelgusida jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, shuningdek Jinoyat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishda inobatga olinishi bildirilgan;

jinoyatlarni situatsion oldini olish tushunchasi, jinoiy vaziyatlarni oldini olish usullari va vositalariga doir ilmiy qarashlar Huquqni muhofaza qilish akademiyada yaratilgan “Kriminologiya” darsligida o‘zining ifodasini topdi hamda o‘quv jarayonida

foydalanilishi ta'minlandi (*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining 2025 yil 07 noyabrdagi 30/23-416/25-son dalolatnomasi*). Bu soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi;

“jinoiy jazodan ko‘zlangan asosiy maqsad ijtimoiy adolatni ta‘minlash” ekanligini jinoyat qonunchilikda aniq belgilash, shu asosda jinoiy jazolar tizimini qayta ko‘rib chiqib, undan “axloq tuzatish ishlari” kabi mohiyatan eskirgan jazo turlarini chiqarib tashlash, ularning o‘rniga “ish haqidan ushlab qolish” kabi yangi jazo turlarini kiritish haqidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (Umumiy qismi)ning yangi tahrirdagi loyihasi X-bobi 48-moddasi 2-qismini hamda X-bobi 49-moddasi 2-qismini shakllantirishda inobatga olingan (*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024 yil 12 oktyabrdagi 27/2-269-24-son dalolatnomasi*). Mazkur takliflarning inobatga olinishi Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi loyihasida ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi;

jinoyat-protsessual qonunchiligida prinsiplar fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan qoidalar ekanligini alohida e‘tirof etib, jinoyat ishlarini hay‘atda yoki yakka tartibda ko‘rib chiqish kabi tashkiliy xarakterga ega bo‘lgan masalalarni prinsiplar qatoridan chiqarish, jinoyat protsessini yuritishga mas‘ul bo‘lgan sub‘ektlarning aniq huquqiy maqomini belgilash, jinoyat protsessida jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zararlarning qoplanishini ta‘minlash, jinoyat ishlarini yuritayotgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning harakatlari va qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi va muddatlarini belgilash haqidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining yangi tahrirdagi loyihasi 2-bobi 5-moddasi 1-qismi, 4-bobi 37-moddasi 1-qismi, 4-bobi 41-moddasi 1-qismi, 46-bobi 350-moddasi 1-qismi, 54-bobi 393-moddasi 1-qismi hamda 394-moddasi 1-qismini shakllantirishda inobatga olingan (*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024 yil 12 oktyabrdagi 27/2-270-24-son dalolatnomasi*). Ushbu takliflarning inobatga olinishi Jinoyat-protsessual kodeksining yangi tahrirdagi loyihasida jinoyat-protsessual jarayonlarni ijtimoiy adolatni ta‘minlashga yo‘naltirilishi, optimallashtirishi va jinoyat ishlarini yuritishga mas‘ul sub‘ektlarning funkcionallashtirishini ta‘minlashga xizmat qiladi;

jinoyat ishlarini yuritishda nafaqat sudning balki boshqa mas‘ul sub‘ektlar, jumladan prokurorning mustaqilligini ta‘minlash muhimligi, bu borada prokuratura organlarida kollegial boshqaruv organlari, shuningdek malaka va odob-axloq kengashlarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish lozimligi haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahriri loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024 yil 17 iyuldagi 27/2-174-24-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning inobatga olinishi jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati uchun mas‘ul sub‘ektlardan biri bo‘lgan prokuratura organlarining mustaqilligini ta‘minlashga, shuningdek prokuratura xodimlarining kasbiy va axloqiy mas‘uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning mazmuni va ilmiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlari muhokamasiga kiritildi.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilganligi. Tadqiqot doirasida jami 18 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta ilmiy risola, 1 ta tahliliy to‘plam, 16 ta ilmiy maqola (shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob (9 ta paragraf), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiya matnining hajmi 156 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslantirilgan, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, tadqiqot usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi “Jinoyatchilikka qarshi kurashishning nazariy jihatlari”** deb nomlanib, mazkur bobda jinoyatchilikka qarshi kurashish kategoriyasining talqini va mazmuni, jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir kriminologik yondashuvlar hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishning ayrim modellari (muayyan davlatlar tajribasi misolida) tadqiq etilgan.

Ushbu bobning *“Jinoyatchilikka qarshi kurashish” kategoriyasining talqini va mazmuni*” deb nomlangan **birinchi paragrafida** jinoyatchilikka qarshi kurashish atamasi fanlararo kategoriya sifatida talqin etilib, uning mazmunini ochib beruvchi bir qator ilmiy ta‘riflar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashishni funksional tizim sifatida ifodalovchi quyidagi ta‘rifi shakllantirilgan: *“jinoyatchilikka qarshi kurashish – bu, davlat hamda jamiyatning jinoyatchilik illatiga murosasiz munosabati bo‘lib, u davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, jamoatchilik tomonidan jinoyatchilikni oldini olish va javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash shaklida amalga oshiriladigan ko‘p bosqichli faoliyatdir”*.

Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish shartli ravishda quyidagi to‘rt bosqichdan iborat bo‘lishi ilmiy asoslantirilgan:

1-bosqich: jinoyatchilikni profilaktika qilish (umumkriminogen omillar ta‘sirini neytrallash)”;

2-bosqich: jinoiy vaziyatga yo‘l qo‘ymaslik (jinoyatlarni situatsion oldini olish);

3-bosqich: yuz bergan jinoyatni fosh etish (tergovga qadar tekshiruv va tergov qilish);

4-bosqich: jinoyat oqibatlarini bartaraf etish va/yoki odil sudlovni ta‘minlash (ixtiyoriy kompensatsiya, sud tomonidan ishni ko‘rish va jazo tayinlash, jinoiy jazolar ijrosi).

Shu o'rinda, tadqiqotchi "jinoyatchilikni oldini olish" tushunchasini talqin qilishdagi tushunmovchiliklarga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi mazmundagi ta'rifni ishlab chiqqan:

"Jinoyatchilikni oldini olish – bu jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan, kelgusida va ayni vaqtda jinoyat(lar) va u(lar)ning zararli oqibatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadini ko'zlaydigan, jinoyatchilik profilaktikasi (umumkriminogen omillar ta'sirini neytrallash), jinoiy vaziyatga yo'l qo'ymaslik (jinoyatlarni situatsion oldini olish), shuningdek yuz bergan jinoyat uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash orqali qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish kabi jarayonlarda aks etadigan davlat va nodavlat tashkilotlari hamda jamoatchilikning zaruriy kuch va vositalari safarbar etiladigan umum-kriminologik va maxsus-kriminologik choralarni o'z ichiga olgan ijtimoiy-huquqiy faoliyat".

Shu asosda tadqiqotchi "jinoyatlarning oldini olish" jinoyatchilikka qarshi kurashishning alohida shakli ekanligini va uni jinoyatchilikni profilaktika qilish bosqichida birlamchi ko'rinishda, jinoiy vaziyatga yo'l qo'ymaslik bosqichida ikkilamchi ko'rinishda hamda yuz bergan jinoyatni fosh etish hamda odil sudlovni amalga oshirish bosqichida uchlamchi (hosila) ko'rinishda talqin etish zarurligini ta'kidlangan. Va ular bo'yicha quyidagicha to'xtamga kelgan:

Jinoyatchilik profilaktikasi – bu jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining jinoyatlarni birlamchi (erta) oldini olishga qaratilgan ilk bosqichi bo'lib, u umumiy yoki alohida toifadagi jinoyatchilikning kriminogen omillariga (shu jumladan, jinoyatga moyil yoki viktimologik xulq-atvor shakllanishiga) antikriminogen ta'sir ko'rsatishda ifodalanadigan asosan umum-kriminologik chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga olgan umumijtimoiy faoliyat hisoblanadi.

Ushbu faoliyat umumjamiyat oldidagi vazifa, davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, unda jamiyatning barcha qatlamlari, sohalari va institutlari ishtirok etishi, xususan birinchi galda ta'lim-tarbiya sohasi, siyosiy-ma'rifiy, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy, san'at va madaniyat, jurnalistika kabi sohalar safarbar etiladi.

Jinoyatlarni situatsion oldini olish – jinoyatchilikka qarshi kurashishning alohida bosqichi hamda jinoyatchilikni oldini olishning maxsus shakli va ikkilamchi ko'rinishidir.

Javobgarlik muqarrarligini ta'minlash – jinoyatchilikka qarshi kurashishning maxsus shakli hamda jinoyatchilikni oldini olishning uchlamchi (hosila) ko'rinishi hisoblanib, u jinoyat ishlarini yuritishga vakolatli bo'lgan maxsus sub'ektlar tomonidan amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi hamda jinoyat haqidagi ariza va xabarlar, shuningdek boshqa ma'lumotlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishdan boshlab to sud qarorlari ijrosini ta'minlash kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Birinchi bobning "*Jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir kriminologik yondashuvlar tahlili*" deb nomlangan **ikkinchi paragrafida** kriminologik yondashuvlar quyidagi to'rt guruhga ajratib tahlil qilingan:

1-guruh: jinoiy hodisaga nisbatan yondashuvlar (*konsensus nazariyasi, konfliktlar nazariyasi, ijtimoiy interaksionizm nazariyasi*);

2-guruh: jinoyat sodir etilishining sabablariga doir yondashuvlar (*teologik, klassik va postklassik, pozitiv, sotsiologik, radikal yo‘nalish*);

3-guruh: jinoyat uchun jazoga nisbatan yondashuvlar (*retributiv, konsekvensial*);

4-guruh: jinoyatchilikni oldini olishga doir yondashuvlar (*tizimli; maxsus-preventiv; situativ; viktimologik; prognostik*).

Tadqiqotchining fikricha, jinoiy hodisaga konsensus nazariyasi (jinoyat qonunchiligi ijtimoiy kelishuvning mahsuli ekanligi) asosida yondashish, jinoyat uchun jazo tayinlashda o‘zini birmuncha oqlagan retributiv yondashuvga tayanish hamda shaxsning aybli qilmishiga yarasha adolatli jazo tayinlash va uning zimmasiga o‘z qilmishining oqibatlarini bartaraf etish (zararni qoplash, kompensatsiyalash) vazifasini yuklash to‘g‘ri hisoblanadi.

Zero, jinoyat sodir etilishining sabablariga doir yondashuvlarni: teologik yo‘nalish, klassik va postklassik yo‘nalish, pozitiv (fiziologik, genetik, psixologik) yo‘nalish, sotsiologik yo‘nalish, radikal (tanqidiy) kabi yo‘nalishlarga ajratgan holda tadqiq qilish ularning farqli jihatlarni anglashga xizmat qiladi. Qolaversa, barcha yo‘nalishdagi ta‘limotlar ma‘lum kuzatuvlar oqibatida yuzaga kelgan va muayyan ob‘ektiv asoslarga ega bo‘lgani uchun ham, ular jinoyatchilik yoki uning alohida turlarini oldini olishga doir strategiya va dasturlarni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo‘ladi.

Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha tizimli, maxsus-preventiv, situativ, viktimologik, prognostik kabi asosiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, jinoyatchilikning oldini olish ishlarini tashkil etishda ushbu yondashuvlarning barchasiga o‘z o‘rnida murojaat etish zarurati yuzaga keladi.

Birinchi bobning “*Jinoyatchilikka qarshi kurashish modellari: ayrim davlatlar tajribasi asosida*” deb nomlangan **uchinchi paragrafida** tizim va uning modeli, jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir kriminologik tizim tushunchasi hamda kriminologik tizimlarning ayrim modellari va ularga xos xususiyatlar tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ma‘lum davlatda muayyan bir davrda shakllangan jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi haqida dastlabki va birlamchi tasavvurlarning hosil bo‘lishi uchun jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimlarini *islom, anglo-amerika, kontinental, sovet, postsovet kabi modellar, shuningdek alohida davlatlarning milliy modeliga* ajratgan holda o‘rganish mumkin deb xulosa qilingan.

Dissertatsiyada *islom modeli* (shar‘iy-islomiy me‘yorlar va o‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida qozilik mahkamalarining faoliyati), *anglo-amerika modeli* (Buyuk Britaniya va AQSh tajribasi), *kontinental model* (Shvetsariya va Yaponiya tajribasi), *postsovet modeli* (Qozog‘iston va Xitoy tajribasi kabi) alohida davlatlar tajribasini o‘rganish asosida tadqiq etilgan va ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlashtirilgan.

O‘rganish natijalariga asoslanib, zamonaviy dunyoda davlatlar aynan o‘ziga xos bo‘lgan modelni ishlab chiqishi va shakllantirishi maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning empirik qismi hisoblangan **ikkinchi bobi “O‘zbekistondagi jinoyatchilik va unga qarshi kurashish holati”** deb nomlanib, mazkur bobda O‘zbekistondagi jinoyatchilikning o‘ziga xos xususiyatlari, jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy (jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, profilaktika

to'g'risidagi) qonunchilikni takomillashtirish masalalari hamda mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir amaliy faoliyat tahlili natijalari o'rin egallagan.

Ushbu bobning "*O'zbekistonda jinoyatchilikning holati va o'ziga xos xususiyatlari*" deb nomlangan **birinchi paragrafida** mamlakatdagi jinoyatchilik ko'rsatkichlarining uzoq davrda (1960-2024 yillar oralig'ida)gi dinamik o'zgarishi tahlil qilingan hamda tendensiyaviy xususiyatlarini aniqlashtirish masalalariga urg'u berilgan.

Ma'lumki, jinoyatchilikni diagnostika qilish jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida birlamchi ahamiyatga ega bo'lib, jinoyatchilikni oldini olish choralarining sifatli va samarali bo'lishi jinoyatchilik holatini lozim darajada tadqiq etilganligiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Shu bois, tadqiqotchi statistik tahlillar so'nggi o'n yilda yurtimizda jinoyatchilik nostabil kechganligiga e'tiborini qaratib, ayni vaqtda, jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tashkil etishda jinoyatchilikning quyidagi xususiyatlarini inobatga olish lozim, deb xulosaga kelgan:

birinchidan, umumiy jinoyatchilik tarkibida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar ulushi 1\3 bir qismni tashkil etayotganligi mazkur toifadagi ishlarni sudga qadar hal etish yoki soddalashtirilgan tartibda yuritishga doir jinoiy-protsessual institutlarni takomillashtirishga undaydi;

ikkinchidan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatchilik tarkibida firibgarlik ($\approx 40\%$), o'g'rilik ($\approx 16\%$), o'zlashtirish yoki rastrata ($\approx 8\%$), giyohvadlik ($\approx 8\%$) jinoyatlarining ulushi yuqoriligi ushbu toifadagi jinoyatchilik omillarini chuqurroq tadqiq qilish va ularga qarshi maqsadli dasturlar ishlab chiqishni taqozo qiladi;

uchinchidan, shaxsga qarshi jinoyatchilikning salmoqli qismi sog'liqqa qarshi ($\approx 57\%$) hamda oila, yoshlar va axloqqa qarshi ($\approx 21\%$) jinoyatlardan iboratligi ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikning ta'sirchan (kompensatsion) mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi;

to'rtinchidan, iqtisodiyot sohadagi jinoyatchilik (ayniqsa o'g'rilik va firibgarlik) ulushi ($\approx 60\%$ dan ziyodga tomon) oshib borish tendensiyasiga egaligi jinoyatchilikka qarshi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi; jamoat xavfsizligi va tartibiga qarshi ($\approx 20\%$) hamda boshqaruv tartibiga qarshi ($\approx 10\%$) jinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi yuqori ekanligi fuqarolarda tartib-intizomli hulq-atvorni shakllantirishga doir tadbirlarni yo'lga qo'yishni hamda kiberjinoyatlarning keskin oshishi (2024 y. umumiy jinoyatlarning 44%i), ularga qarshi kurashishning maxsus axborot-texnologik va protsessual (tezkor-elektron) choralari hamda xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi bobning "*Jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy (jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, jinoyatlar profilaktikasiga doir) qonunchilikni takomillashtirish masalalari*" deb nomlangan **ikkinchi paragrafida** mamlakatimizdagi jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid asosiy qonunchilik – profilaktika to'g'risidagi qonun hamda jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya kodekslarining mazmun xususiyatlari, ularni takomillashtirishning ayrim jihatlari tadqiq qilingan.

Tadqiqot jarayonida jinoyatlar profilaktikasi masalasi milliy qonunchilikda turli normativ-huquqiy hujjatlarda tarqoq holda huquqiy tartibga solingani, hozirda tizimlashtirishga ehtiyoj mavjudligi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi

qonunning o'zida ham ayrim nomuvofiqlik va bo'shliqlar uchrashi aniqlashtirilgan. Shuningdek, ushbu qonunda "profilaktika" atamasiga noto'g'ri ta'rif berilib, uning tarkibiga huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari noo'rin kiritilgani, profilaktik faoliyatni muvofiqlashtirish mexanizmlari yetarlicha tartibga solinmagani haqida xulosalar qilingan.

Qolaversa, tadqiqotchi tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida "huquqbuzarlik profilaktikasi" emas, "jinoyatchilik profilaktikasi" atamasini qo'llash o'rinli ekanligi bildirilgan. Boisi, *birinchidan*, ma'muriy huquqbuzarliklar qator davlatlar jinoyat qonunchiligida nojo'ya qilmish sifatida o'rin olgan; *ikkinchidan*, ma'muriy huquqbuzarliklarga jinoyatchilikning omili sifatida baho berish mumkin bo'lib, jinoyatchilik profilaktikasi ma'lum ma'noda ma'muriy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish lozimligini ham nazarda tutadi; *uchinchidan*, respublikamizda ma'muriy huquqbuzarliklar jinoyatchilik soniga nisbatan bir necha o'n barovar ko'p qayd etiladi va bu holat ularning determinantlarini aniqlashni murakkablashtiradi.

Mazkur paragrafda amaldagi Jinoyat kodeksining vazifa va prinsiplari, og'irlik darajasiga ko'ra jinoyatlar tasnifi va jazolash institutining ayrim jihatlari, 1996-2024 yillarda Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar tahlil qilingan, jinoyat qonunchiligida konseptual nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlashtirilgan.

Jinoyat qonunchiligining adolatli bo'lishi jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati samaradorligini oshirishga bevosita xizmat qiladigan muhim omillardan ekanligiga alohida urg'u berilgan. Ayni vaqtda, amaldagi jinoyat qonunchiligining maqsad va prinsiplari, undagi jinoyatlar tasnifi hamda jazolar tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjudligi bildirilib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan qator takliflar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida ham qator nomuvofiqliklar mavjudligi, xususan, ayblov yondashuvi birmuncha saqlanganligi, ayrim protsessual jarayonlarda takroriylik va dualizm (ikki yoqlamalik) kuzatilishi, muayyan protsessual bo'shliqlar hamda jinoyat ishlarini yuritishni murakkablashtiradigan jarayonlar ko'zga tashlanishi isbotlanib, jinoya-protsessual qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan konseptual fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligi bo'yicha esa xalqaro ekspertlarning tanqidiy fikrlari o'rganilgan va bayon etilgan.

Paragraf so'nggida jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir qonunchilikni takomillashtirishdan avval ularning mustahkam ilmiy-doktrinal asoslarini ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan.

Ikkinchi bobning "*O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotining tahlili*" deb nomlangan **uchinchi paragrafida** jinoyatchilikni profilaktika qilish, jinoyatlarni aniqlash va qayd etish, jinoyatlarni sudga qadar yuritish, odil sudlovni amalga oshirish hamda jinoiy jazolarni ijro etish amaliyotlari tizimli tahlil qilingan.

Bu borada ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatiga alohida urg'u berilib, ushbu yo'nalishida 10 mingdan ziyod (katta) inspektorlar faoliyat ko'rsatishi va ular faoliyati keng qamrovli ekanligi aniqlashtirilgan.

Ekspert sifatida so'rovga jalb etilgan profilaktika inspektorlarining 62 foizi jinoyatchilikka qarshi kurashishda ijtimoiy-huquqiy choralarga nisbatan jinoiy-huquqiy choralar samarali ekanligini ta'kidlashgan bo'lsada, ammo ularning 43 foizi faoliyatlarining eng ustuvor vazifalari nimalar ekanligini anglashda tushunmovchiliklar mavjudligini (19 variantda javob berilgan), 36 foizi yakka tartibdagi profilaktika choralarni, 33 foizi esa ilgari sudlangan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan maxsus profilaktik choralarni qo'llashga faoliyatlari davomida juda ko'p va tez-tez murojaat qilsalarda, ushbu choralar orasidan samaralarini aniqlashtirishda turli qiyinchiliklarga uchrab kelishayotganliklarini bildirishgan. Ayni vaqtda, Bosh prokuratura tomonidan o'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarni profilaktika qilish yoki aniqlanadigan jinoyatlarni tezkor fosh etish orqali kamaytirish tadbirlari o'z samarasini bermayotganligi haqida xulosaga kelingan.

Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda jinoyat haqidagi ariza va xabarlar oshib borish tendensiyasiga ega bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 2021 yilda 87,1 foizga, 2022 yilda 67,5 foizga va 2023 yilda 64,7 foizga ko'paygan.

Shu bilan birga, jinoyatga oid ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqish amaliyotini tahlil qilish jarayonida bir qator jiddiy nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'yib kelingan.

Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish amaliyotida esa 2019 yilga nisbatan 2023 yilda ish yurituvdagi jami jinoyat ishlar 2 barovarga (54350 tadan 110450 taga), tamomlangan ishlar 1,9 barovarga (38724 tadan 75232 taga), to'xtatilgan ishlar 3.2 barovarga (4478 tadan 14171 taga) va qoldiqdagi ishlar 1.6 barovarga (4079 tadan 6478 taga) ko'paygani ko'zga tashlangan.

Bu borada ekspertlik so'roviga jalb etilgan tegovchilarning 31 foizi "tergovchilarning mustaqilligini ta'minlash uchun nazorat tadbirlarini kamaytirish lozim"ligini bildirishga bo'lsa, 87 foizi "tergov ishlarini tergovchining bir o'zi emas, balki tergov guruhi (*yordamchi tergovchi, tezkor xodim, kriminalist, ekspert, IT mutaxassis kabilardan tashkil topgan*) yordamida amalga oshirish", 64 foizi "ishni sudga qadar yuritish davomida shaxsni gumon ostidagi shaxs maqomida qoldirish", 71 foizi esa jinoyat protsessiga nooshkora tergov harakatlari institutini kiritishga oid fikr va g'oyalarni qo'llab-quvvatlashgan.

Ushbu paragrafda sud amaliyoti ham tahlil qilinib, bir qator mummolar mavjudligi aniqlangan. Ular orasidan sud tizimidagi eng og'riqli muammolardan biri sifatida sudyaning ish yuklamasi ko'pligi keltirib o'tilgan.

Darhaqiqat, birgina 2022 yilda jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudi sudyasiga bir oyda o'rtacha 181 ta ish to'g'ri kelgan. 2018-2023 yillardagi tahlillarga ko'ra, birinchi bosqich sudida ko'rilgan jinoyat ishlarining ≈ 30.1 foizi apellyasiya yoki kassatsiya instansiyasida qayta ko'rib chiqilgan, ularning ≈ 8.8 foizi bo'yicha sud qarorolari bekor bo'lgan bo'lsa, ≈ 19 foizi o'zgartirilgan (*ya'ni, qariyb 28 foizi o'zgartirilgan yoki bekor qilingan*).

Sud hukmlarining bekor bo'lishi va o'zgarishi uchun qariyb 48 foiz holatda jazoning adolatsizligi hamda deyarli 32 foiz holatda qilmish noto'g'ri kvalifikatsiya qilingani asos qilib olingan.

Sudyalar o'rtasida o'tkazilgan ekspertlik so'rovnomada esa ularning 13 foizi "sudyalarni isbotlash sub'ektlari ro'yxtidan chiqarish" fikrini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, 39 foizi "ishni sudga qadar yuritish davomida shaxsni gumon ostidagi shaxs maqomida qoldirish" g'oyasini ijobiy baholagan, 51 foizi "jinoiyat protsessiga nooshkora tergov harakatlari institutini kiritish" hamda 69 foizi "sudlarda ish hajmining ko'pligini inobatga olib, yarashuvga tushadigan, zararlari qoplangan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sudgacha hal etish institutini joriy etish" takliflariga qo'shilishgan, 29 foizi "tergovga qadar tekshirish, tergov va surishtiruv organlari tomonidan dalillarni to'plash va rasmiylashtirishda kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligini hamda 37 foizi "ozodlikni cheklash" va 26 foizi "majburiy jamoat ishlari" jazolari samaradorligi va mexanizmini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlashgan.

Paragraf so'ngida jazoni ijro etish muassalarining jazoni ijro etish amaliyoti tahlil qilinib, ushbu muassasalarda saqlanayotgan mahkumlar tomonidan 2021 yilda 22 holatda, 2022 yilda 124 ta holatda va 2023 yilda 115 ta holatda qayta jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilgan penitensiar tizimda jinoyatlarning profilaktikasi maqsadli, manzilli va tizimli yo'lga qo'yilmagan deb xulosa qilishga asos yaratgan. Bu kabi salbiy tendensiya probatsiya xizmati hisobida turib jazo o'tayotgan shaxslarning 2021 yilda 293 nafari tomonidan 285 ta, 2022 yilda 845 nafari tomonidan 844 ta, 2023 yilda 601 nafari tomonidan 601 ta qayta jinoyat sodir etilganida ham kuzatilgan va tadqiqotchi tomonidan jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish, axloqan tarbiyalash ishlari yetarli tarzda tashkil etilmagan, deb xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi "Jinoiyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy modelni shakllantirish masalalari"** deb nomlanib, unda O'zbekistonda jinoiyatchilikka qarshi kurashish tizimining rivojlanishi o'rganilgan, milliy tizimni takomillashtirish uchun taklif etilayotgan model hamda uning asosiy yo'nalishlari va tuzilmaviy komponentlari konsepsiyasi mazmuni ochib berilgan.

Ushbu bobning "*O'zbekistonda jinoiyatchilikka qarshi kurashish tizimining rivojlanishi*" deb nomlangan **birinchi paragrafida** O'zbekistonda o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan boshlab to shu kunga qadar jinoiyatchilikka qarshi kurashish tizimining rivojlanishi (sohasida qabul qilgan qonunchilik hujjatlarini tahlil qilgan holda) shartli ravishda quyidagi 4 ta bosqichga ajratib tadqiq etilgan:

birinchi bosqich (1992-1999-yillar) – jinoiyatchilikka qarshi kurashish tizimining *huquqiy poydevorini yaratishda* ifodalanib, davlatimiz Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, Prokuratura to'g'risida, Sudlar to'g'risida, Advokatura hamda Advokatlar faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida qator qonunlar qabul qilingan;

ikkinchi bosqich (2000-2009-yillar) – jinoiyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida *insonparvalik tamoyilining amal qilishiga urg'u berish, jinoyat qonunchiligini liberallashtirilishida* ifodalanib, ushbu davrda "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida" (2000 y.), "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi (2001 y.), "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi (2008 y.), "O'zbekiston

Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 49-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi (2008 y.) Qonunlari, Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi (2005 y.) Farmoni qabul qilingan;

uchinchi bosqich (2010-2016-yillar) – jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimidagi "bo'shliq"larni to'ldirish, sohadagi muayyan faoliyat turlari uchun qonunchilik asoslarini yaratishda ifodalanib, ushbu davrda "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida" (2010 y.), "Jinoyat ishlarini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida" (2011 y.), "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" (2012 y.), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" (2014 y.), "Ichki ishlar organlari to'g'risida" (2016 y.), "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" (2017 y.)gi qator qonunlar qabul qilingan;

to'rtinchi bosqich (2017-2024-yillar) – jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida shakllangan tizimni *tanqidiy tahlil qilish*, qonunchilikni takomillashtirish hamda amaliy faoliyat samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilib, bu davrda sohadagi islohotlar bilan bog'liq 20 taga yaqin muhim qonunosti hujjatlari, jumladan Prezidentning farmon va qarorlari qabul qilingan.

Shuningdek, ushbu paragrafda, O'zbekistonning amaldagi jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimidan chiqarib tashlanishi kerak bo'lgan postsovet modeliga xos ayrim xususiyatlar tahliliy o'rganilgan.

Uchinchi bobning "*Milliy tizimni takomillashtirish yuzasidan taklif etilayotgan modelning mazmuni*" deb nomlangan **ikkinchi paragrafida** milliy modelni ishlab chiqishning ahamiyati hamda taklif etilayotgan milliy model mazmunini ochib beruvchi elementlar – faoliyat ob'ekti, sub'ekti, maqsadi, prinsiplari, yo'nalishlari, usul va vositalari, faoliyat mexanizmi, baholash mezonlariga izohlar berilgan.

Bu borada tadqiqotchi "*jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy tizimi*" deganda, ma'lum jamiyatdagi jinoyatchilik xususiyatlari, unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy omillarni inobatga olgan holda ilmiy asoslantirilgan va tizimlashgan nazariy bilimlar (jinoyatchilikka qarshi kurashish doktrinasi) asosida jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga doir qonunchilikni ishlab chiqish hamda mazkur qonunchilikka muvofiq jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish, amalga oshirish va muvofiqlashtirib borishdan iborat bo'lgan muayyan mamlakat doirasida (yoki u bilan bevosita bog'liq ravishda boshqa hududlarda) o'zaro aloqadorlikda kechadigan jarayonlar yig'indisini tushunish to'g'ri bo'lishini, ta'kidlaydi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy modelini shakllantirish har bir davlat va jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu o'rinda bir davlatning tajribasi boshqa bir davlatning amaliyoti uchun mos kelavermasligini e'tiborga olish lozim.

